

## NAVOIYNING “XAMSA” DOSTONLARIDA TASAVVUF TALQINI

**Hoshimjon Ahmedov**

ToshDO‘TAU dotsenti, f.f.n

[Ahmedov.hoshim60@gmail.com](mailto:Ahmedov.hoshim60@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada buyuk o‘zbek mutafakkir-shoiri Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning “Xamsa” dostoni tarkibiga kiruvchi besh dostonida ifodalangan tasavvuf g‘oyalari tahlilga tortiladi. Bunda shoir ilgari surgan badiiy g‘oya, shoirona matn badiiyati tadqiq etiladi. Har bir dostonida zuhur etgan ma’no va mohiyat haqida mulohazalar bayon qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, “Xamsa” dostonlari, tasavvuf g‘oyalari.

**Аннотация.** В данной статье анализируются мистические идеи, выраженные в пяти лиро-эпических произведениях, входящих в эпос «Хамса» великого узбекского мыслителя и поэта Низомиддина Мира Алишера Навои. В работе исследуется художественная идея, выдвинутая поэтом, и искусство поэтического текста. Приводятся комментарии о смысле и сущности, раскрытых в каждом дастане.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, эпос «Хамса», мистические идеи.

**Abstract.** This article analyzes the mystical ideas expressed in five epic works comprising the Khamsa epic by the great Uzbek thinker and poet Nizomiddin Mir Alisher Navoi. The work examines the poet's artistic concept and the art of the poetic text. Commentary is provided on the meaning and essence revealed in each epic.

**Keywords:** Alisher Navoi, Khamsa epic, mystical ideas.

### KIRISH.

Tasavvuf bu – qisqa qilib aytganda, ortiq darajadagi xudosevarlikdir. Shariat qonun-qoidalarini, mo‘min-musulmonchilik qoidalarini to‘la ado etguvchi kishigina tasavvuf sulukiga kirishi mumkin bo‘lgan. Tasavvuf – Alloh yo‘lida mukammal kamolot yo‘li. “Odamiyning dunyoda bo‘lmoqining sababi ikki niarsaga hojati bordur. Biri ulki, avvalgi dilni asbob (tahdil) halokatidin saqlagay va aning g‘azosin (mevasin) hosil qilgay. Va yana biri badanni halok qiladurgan narsalardan saqlagay va aning g‘azosini qilgay va dilni g‘azosi. Haq taoloning ma‘rifati va muhabbatidur. Charoki, har narsani g‘azosi o‘z ta‘bining muqtizosidurkim, dil ma‘rifatini taqozo qilur, badanini asramoq dil uchundirkim, badan foniydur, va dil boqiydur”, – deyiladi “Kimyoi saodat turki”da. [1, 12]. Mazkur maqolada Navoiyning “Xamsa” dostonlari

tarkibida tasavvuf g'oyalari qay darajada talqin etilgani haqida ayrim mulohazalarni bildirib o'tamiz.

### **Tahlil va mulohazalar.**

Besh doston tarkibiga kiruvchi asarlarda so'fiyona ma'nolar aks etgan. Dostonlarning hammasida badiiy niyatga ko'ra bosh qahramonlar otashin ishqparast, sodiq, fidoyi oshiqlardir. Shoir xatto shohlarni ham oshiq bo'lishga chorlaydi. Chunki shoir inonchi bo'yicha "ishqsizlik, ilohdan bexabarlikning o'zi zulm, demak, bunday odam podshoh bo'lsa – el holiga voy, chunki ishq yo'q odam mohiyatan berahm, beshafqat bo'ladi. Iloh ishq, umuman ko'ngilning muhabbatga moyilligi odamni adolat va insofga oshno etadi". "Farhod va Shirin" dostonida shoir so'fiyona ishqni ulug'lab, yozgandi:

"Ki inson ko'nglin etti gulshani ishq,

Bu gulshanning harimin maxzani ishq". [2. 56]. Ya'ni, tangri olamni yaratganda inson ko'ngliga ishqni solgan. Ilohiy ishq nuri tushgan nimaiki bor, ular yaratuvchining jilvasiga aylanadi, ilohiy husnni namoyon etuvchi bo'ladi:

"Aning nuri chu partav qildi zohir,

Bori zarrot bo'ldilar mazohir". (158)

"Sab' ai sayyor" dostonida esa Bahrom (bosh qahramon)ning bu dunyo hoyu havaslariga mashg'ul bo'lib, hirs, mol- dunyo, xudbinlik yo'liga kirib, obro'sini yo'qotishini, raiyyat ahvoliga e'tibor bermay qo'yganini shoir qattiq qoralaydi. Bu kulfatlarning ham barini shoir ishqsizlikdan deb biladi:

"Ishq uchun bedili kerak foniy,

O'rtagan shavq shu'lasini.

Shohkim mulk ocharni qilsa nasaq,

Yuz tuman qon to'kar bari nohaq.

Oshiq o'lganki, kechmagay jondin, [3. 106]

Ishq behad yiroq durur ondin". "Saddi Iskandariy" dostonida shoir qahramonini ishq ahlidan deb biladi va ideal tarzda tasvirlaydi. Ahamiyatli

ishuki, haqiqiy ishq yo'li, haq diydorini talab etgan kishi (solik) tasavvufda faqir, gado kabi hech nimaga xojatmand bo'lmasligi kerak. Mana shunday kishilargina shoh sanaladi, chunki ular yolg'iz tangrigagina quldirlar va bu qullik baxtdir. Iskandar esa taxt, saltanatning quli. Lekin u ana shu faqir holatidagi asl boylikni, ko'ngilda xudo zikri- fikri bilan boy bo'lgan shohlarni ulug'laydi, qadrlaydi:

"Ki, bu dayr aro topsang ogohlik,

Senga faqr berdi, manga shohlik.

Agarchi meni ayladi arjumand,

Senga berdi himmatni mendin baland.

Gadoyeki bo'lgay biyik himmati,  
Anga past erur shohlik rif'ati.  
Chu himmat baland o'ldi ersa faqir.  
Ko'ziga erur asr shohi haqir." [4. 99].

Iskandarning odil podshoh bo'lganligi, haq buyurgan amallarni ro'yobga chi qaruvchi va nihoyat oshiqqlarni, gado-faqirlarni qadrlashi diqqatga loyiq. Tasavvuf g'oyasi ayniqsa "Layli va Majnun" dostonida kengroq ochiladi:

Ey har sorikim, qilib tajalli,  
Ul mazhar o'lub jahonda Layli.  
Ey oniki Layli aylab otin,  
Manjun qilmoq qilib sifotin. [5. 8].

Ya'ni, yaratuvchining har yer, har narsadagi tajallisi (jilvalanishi) atrof-javoni bda Layli bo'lib jilvalanadi, bu ish yaratilganlarni Majnun (jinni, devona, telba, ix tiyorsiz) qilmoqdir. Majnun hatto Ka'ba qoshida ham ishqiy munojot aytadi:

Ko'nglum g'am ila to'q ayla, yo rab!  
Ishq ichra meni yo'q ayla, yo rab!  
Layli ishqin tanimda jon qil!  
Layli shavqin ragimda qon qil.

Alisher Navoiy ijodida tasavvuf g'oyalari, ramz- timsollari g'oyat izchil rivojlan tirilgan. Ayniqsa, ilohiy ishq g'oyalari "Mahbubul-qulub" asarida yana ham teran ak s etgan: "Ishq – porloq yulduzdir... bashariyat ko'zining nuri, ziyosi shundan: ishq – tovlanib turuvchi gavhardir – inso-niyat tojining ziynati va bahosi shundan. Ishq – sh unchalar qaysarki, uning oldida shoh ham gado ham teng: u shunday zulmkorki, unin g qoshida iflos-fosiq ham, pokdil oshiq ham bir. Dunyo bozorining g'avg'osi va d unyoda bor hamma narsalarning savdoxonasida-gi shovqin-suron ishq tufaylidir. Bu siz inson kalomi jonsiz tanaga, bashariyatning lafzu iboralari gul va rayhonsiz chamanga o'xshaydi". [6.56]

### **Xulosa.**

Navoiy so'fiyona ma'nolarni, g'oyalarni har bir obraziga, personajl ariga bog'laydi. Ilohiy ishq tasviri aksar mubolag'ador shaklda kechsa ham, u ko'plab aforizm, hikmatli so'zlar, hayotiy, falsafiy xulosalarni yaratilishiga sabab bo 'lgan. Tabiat, jamiyatdagi voqea-hodisanarsalar mohiyatini ilohiy qudratdan kelib chi qib, to'g'ri baholaydi. Bunday kuchli, sobit e'tiqod shoirning butun hayoti va i jodida o'zgarmagan. Tasavvuf g'oya – mazmunini ochish bugungi kunl arimizda eng muhim, adabiyot fanining fundamental sohalaridan biridir. Navoiy ij odi shu sohaning beqiyos manbaidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ғаззолий ибн Муҳаммад. “Кимёи саодат турки”. // “Шарқ юлдузи” журнал и, 1991, №7.
2. Навоий Алишер. МАТ. VII жилд. “Фарҳод ва Ширин”. – Т.: Фан, 1991. – 392 б.
3. Навоий Алишер. МАТ. X жилд. Хамса. Сабъаи сайёр . – Т.: Фан, 1992. – 448 б.
4. Навоий Алишер. МАТ. XII жилд. Садди Искандарий. – Т.: Фан, 1993. – 640 б.
5. Навоий Алишер. МАТ. IX жилд. Хамса. Лайли ва Мажнун . – Т.: Фан, 1992. – 356 б.
6. Навоий Алишер. МАТ. XIV жилд. “Маҳбуб ул-қулуб”, “Муншаот”, “Вақфия”. – Т.: Фан, 1998. – 304 б.